O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil 21 - sentabr 577-14-0-Q/23 Toshkent shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 428-son qarori ijrosi haqida

Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini joylashtirilishini tartibga solish, mazkur yo‘nalishda qat’iy nazorat o‘rnatish, tashqi reklama bozorining ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratib, mulk daxlsizligini ta’minlash va sohaga oid munosabatlarni raqamlashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 428-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha maxsus ishchi guruh O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 428-son qarori ijro uchun qabul qilinsin va ushbu qarorga muvofiq 2023-yil 1-dekabrdan boshlab:

tashqi reklama bozori ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish hamda sohada shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan “Tashqi reklama” raqamli

monitoring elektron tizimi joriy etilishi;

davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalari, binolar hamda inshootlarda yangi o‘rnatiladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) qurish huquqi uchun elektron onlayn-auksion yakunlari bo‘yicha to‘lov hamda tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun yig‘im o‘rniga miqdori ochiq elektron auksion savdolari orqali belgilanadigan tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im (keyingi o‘rinlarda – yig‘im) joriy etilishi;

davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalarida, bino hamda inshootlarda tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun reklama joyining pasporti hamda ularni o‘rnatish uchun shartnomalar ommaviy oferta shaklida “E-auksion” elektron savdo platformasining yagona elektron savdo maydonchasida auksion g‘olibiga avtomatik tarzda berilishi;

xususiylashtirilgan, ijaraga berilgan yoki nodavlat tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalarida, shuningdek, xususiy mulk bo‘lgan binolar va inshootlarda hamda transport vositalarida (yo‘nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini beruvchi reklama joyining pasporti O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda – YAIDXP) axborot tizimi orqali berilishi belgilanganligi;

tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari;

tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlardan tushadigan mablag‘lar taqsimoti tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha maxsus ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari – Raqamli rivojlanish departamenti rahbari (A.Xen) Ishchi guruhi bilan birgalikda:

o‘n kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda –

Qo‘mita) tomonidan taqdim etilgan namunaviy tartib asosida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish tartibini tasdiqlash uchun Toshkent shahar hokimligiga taklif kiritsin;

2023-yil 1-dekabrga qadar manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan holda, tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazsin;

tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) belgilangan tartiblarga muvofiq o‘rnatilganligi ustidan doimiy nazoratni ta’minlasin;

Qo‘mita bilan birgalikda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish uchun shartnoma ommaviy ofertasining namunaviy shaklini ishlab chiqsin;

2023-yil 1-dekabrga qadar “Tashqi reklama” raqamli monitoring elektron tizimini (keyingi o‘rinlarda – elektron tizim) ishga tushirish va texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash Raqamli rivojlanish departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini ta’minlasin.

Bunda:

elektron tizimni joriy etish va texnik qo‘llab-quvvatlash uchun – Departament mas’ul va javobgar hisoblanishi;

elektron tizim “E-auksion” elektron savdo platformasi va YAIDXP axborot tizimiga integratsiya qilinishi inobatga olinsin;

tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) elektron auksion savdolariga chiqarishning boshlang‘ich narxi reklama maydonining (sathining) bir kvadrat metri uchun bazaviy hisoblash miqdorining 7 (yetti) foizidan kam bo‘lmagan miqdorida belgilanishi bo‘yicha xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga taklif kiritilsin.

4. Toshkent shahar hokimligining tashqi reklamani joylashtirish sohasiga oid vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida Departamentga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklansin:

tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish uchun taklif etilayotgan yer uchastkalarining, binolarning va inshootlarning

ro‘yxatlarini shakllantirish;

qonunchilikda belgilangan tartibda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) demontaj qilish, ularni ko‘chirish va saqlash hamda ushbu maqsadlarda tegishli tashkilotlar bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

video ekranli (elektron displeyli) tashqi reklama obyektlarini masofaviy boshqarish imkoniyatini yaratuvchi platformaga ulanish maqsadida reklamani masofaviy boshqarish xizmatini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

reklamaning aylanishi sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda vakolatli davlat organiga ko‘maklashish;

reklamaga oid faoliyat subyektlariga tashqi reklama obyektlaridan foydalanish bilan bog‘liq hujjatlar va materiallarni belgilangan muddatlarda taqdim etishga doir so‘rov yuborish;

tashqi reklama sohasiga oid xatlar va murojaatlarni ko‘rib chiqib o‘z vakolati doirasida ijrosini ta’minlash, ularga javob yo‘llash;

Toshkent shahar hokimligiga tegishli tashqi reklama sohasidagi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

5. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari – Raqamli rivojlanish departamenti rahbari (A.Xen), Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (S.To‘xtayev), Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi va Qo‘mita bilan hamkorlikda 2023-yil 1-noyabrga qadar tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish qoidalarini hamda ularni o‘rnatish chizmalarini tasdiqlash uchun xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga kiritsin.

6. Ishchi guruhining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

kamida olti oyda bir marta barcha turdagi tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan xatlovdan o‘tkazishni hamda joylashtirilgan tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) qonunchilik talablariga muvofiqligini o‘rganishni ta’minlash;

tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan

o‘tkazilishini ta’minlash;

xatlov natijalariga ko‘ra tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) egalarini aniqlash, ularning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish va belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq berilgan tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) pasportlari bilan solishtirish;

belgilangan tartibda o‘rnatilgan tashqi reklama va axborot obyektlarining egalari, joylashgan joyi, turi, shakli va pasport ma’lumotlarini shakllantirib, maxsus yaratilgan veb-saytga joylashtirish;

tashqi reklama va axborot obyektlari bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilganligini o‘rganish va tushumlarni tahlil qilish.

7. Ishchi guruhi (A.Xen) ikki oy muddatda:

2018-yildan boshlab Toshkent shahrida o‘rnatilgan tashqi reklama va axborot obyektlarini tahlil qilgan holda yig‘ma ma’lumotlar tayyorlasin;

ushbu qarorda belgilangan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlasin va tashqi reklama sohasini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni joriy yilning 15-oktabriga qadar kiritsin.

8. Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (L.Ismatullayev) bir oy muddatda 2018-yildan boshlab tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) uchun amalga oshirilgan to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Ishchi guruhiga taqdim etsin.

9. Tuman hokimliklari 2023-yil 1-noyabrga qadar 2018-yildan boshlab tashqi reklama va axborot obyektlarini joylashtirish uchun amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarni (to‘lov amalga oshirilishiga asos bo‘lgan shartnoma raqami, to‘lovni amalga oshirgan korxona nomi, jismoniy shaxsning ism-sharifi, ularning STIRlari, to‘lov hajmi, to‘lov amalga oshirilgan tashqi reklama konstruksiyasi pasporti va joylashgan manzili ko‘rsatilgan holda) Ishchi guruhiga taqdim etsin.

10. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati Ishchi guruhi tomonidan o‘tkaziladigan tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) xatlovi jarayonini va xatlov natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish choralarini ko‘rsin.

11. Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi (R.Yusupov), tegishli kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari Departamentga demontaj qilingan tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni vaqtincha saqlash uchun boshqarma va tashkilotlarga tegishli bino va inshootlar mavjud bo‘lgan joylarni 2-ilovaga muvofiq vaqtincha foydalanish uchun ajratish choralarini ko‘rsin.

Bunda, demontaj qilingan tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni saqlash ushbu bino va inshootlar tasarrufida bo‘lgan tashkilotlar zimmasiga yuklatilsin.

12. Toshkent shahar hokimining ayrim qarorlari 3-ilovaga muvofiq bekor qilinsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari A.Xen zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchi **Sh.Umurzakov**

Toshkent shahar hokimining
2023-yil 21-sentabrdagi
577-14-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahrida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha maxsus ishchi guruhi tarkibi

1.	A.Xen	–	Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari – Raqamli rivojlanish departamenti rahbari, *Ishchi guruhi rahbari*
2.	S.Sadikov	–	O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi boshlig‘i
3.	Sh.Raximdjanov	–	Toshkent shahar hokimining uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.b.
4.	L.Ismatullayev	–	Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i
5.	R.Jalilov	–	Toshkent shahar IIBB Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i
6.	Sh.Dusmuxamedov	–	Toshkent shahar bosh arxitektori
7.	R.Yusupov	–	Toshkent shahar Obodonlashtirish bosh boshqarmasi boshlig‘i
8.	Sh.Pulatov	–	Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi rahbari
9.	Lavozimga ko‘ra	–	Reklama industriyasi milliy Assotsiatsiyasi Kengashi vakili
10.	A.Axmadjonov	–	“Tashqi reklama” loyiha ofisi rahbari, *ishchi guruhi kotibi*

Izoh: ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Toshkent shahar hokimining
2023-yil 21-sentabrdagi
577-14-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Demontaj qilingan tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni vaqtincha saqlash uchun ajratilgan joylar ro‘yxati

t/r	Tashkilot nomi	Manzili
1.	“Janubiy-sharqiy” (IM-6)	Mirobod tumani, Munis ko‘chasi
2.	“Shimoliy-sharqiy” 1-issiqlik markazi (IM-1)	Mirzo-Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi
3.	“Qorasuv-2” issiqlik markazi (IM-2)	Mirzo-Ulug‘bek tumani, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi
4.	Sergeli 8-issiqlik markazi (IM-8)	Sergeli tumani, Sug‘diyona ko‘chasi
5.	Chilonzor 5-issiqlik markazi (IM-5)	Uchtepa tumani, 26 mavze
6.	“G‘arbiy” 3-issiqlik markazi (IM-3)	Shayxontohur tumani, Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi
7.	“Shimoliy” 4-issiqlik markazi (IM-4)	Yunusobod tumani, 6-mavze
8.	“Aviasozlar” 7-issiqlik markazi (IM-7)	Yashnobod tumani, Qorasuv ko‘chasi

Toshkent shahar hokimining
2023-yil 21-sentabrdagi
577-14-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Toshkent shahar hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Toshkent shahar hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-avgustdagi “Tashqi reklamani joylashtirish sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 702-sonli qarori ijrosi haqida” 2018-yil 8-sentabrdagi 1318-son qarorida:

a) 2-bandida:

uchinchi – to‘qqizinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) yer uchastkalarida, shuningdek, davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlarda joylashtirish huquqi “E-auksion” elektron savdo platformasida ochiq elektron auksionlar orqali berilishi;

“E-auksion” elektron savdo platformasida ochiq elektron auksionlar orqali berilgan tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) yer uchastkalarida, shuningdek, davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlarda joylashtirish huquqi uchun shartnomalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari yoki ular vakolat bergan tashkilot tomonidan tuzilishi;

ijtimoiy reklama ma’lumotini joylashtirishning eng kam muddati har bir tashqi reklama obyekti bo‘yicha hisoblab chiqilishi;”;

o‘n birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tashqi reklama obyektlari reklama joyining pasporti berilgan kundan e’tiboran olti oy ichida o‘rnatilmagan taqdirda, reklama joyining pasporti bekor qilinishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.”;

o‘n ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

b) 3- va 4-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

v) 5-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi (S.Tuxtayev), Toshkent shahar Transport boshqarmasi (A.Djurayev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar boshqarmasi (A.Razzakov), Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi bilan birgalikda tumanlarda

joylashgan davlat hokimiyati organlari binolari, madaniy-tarixiy va diniy obyektlarda reklamadan holi hududlarni aniqlashda Toshkent shahar hokimligi qoshidagi “Raqamli rivojlanish departamenti” MChJga ko‘maklashilsin.”.

2. Toshkent shahar hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi 104-sonli qarori ijrosi haqida” 2020-yil 27-fevraldagi 203-son qarorida:

a) 2-bandida:

ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) qurish tartibi to‘g‘risidagi nizom”;

uchinchi va to‘rtinchi xatboshilari chiqarib tashlansin;

beshinchi xatboshisi uchinchi xatboshi deb hisoblansin;

uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) xavfsizligining umumiy texnik reglamenti tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.”.

b) 3-bandida:

“a”, “v”, “g” bandlar va “ye” kichik bandining birinchi – uchinchi xatboshilari chiqarib tashlansin;

“d” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“d) milliy bayramlar, xorijiy davlatlar rahbarlarining davlat tashriflari va boshqa davlat tadbirlariga oid axborot tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) joylashtirilganda, tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im Toshkent shahar hokimligining tegishli qaroriga binoan joylashtirilgan kunlarga mutanosib ravishda kamaytirilishi”.

v) 4-, 5- va 6-bandlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

g) 7-bandida:

uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi – yettinchi xatboshilari uchinchi – oltinchi xatboshilari deb

hisoblansin;

uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) joylashtirilgan ijtimoiy axborotlar hisobini yuritish;”;

oltinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining hududiy boshqarmalariga” so‘zlari “Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining hududiy organlariga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

d) 8-, 9-, 10-, 11- va 12-bandlar hamda ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.